

**O'QUVCHILARNI KASB – HUNARGA YO'NALTIRISHDA MAKTAB
PSIXOLOGINING O'RNI**

SAMARQAND VILOYATI PAXTACHI
TUMANI 11- SONLI MAKTAB PSIXOLOGI
RUZIQULOVA UMIDA KUZIBOYEVNA

Ilmiy raxbar: ROXATOVA DILDORA FOZILJON QIZI

*Respublika ilmiy izlanuvchilar markazi xodimi,
“Ta’lim soxasidagi izmatlari uchun” medali soxibasi.*

Annotatsiya: O‘quvchi yoshlarni kasbga yo‘naltirishda har bir jarayon muhim hisoblanadi. Shu bois ham barcha birdek, birdamlik bilan harakat qilishi zarur. Mazkur maqolada kasb-hunarga yo‘naltirishda maktab psixologining o‘rni, uning ish faoliyatida oila-mahalla-maktab hamkorligi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Kasb-hunarga yo‘naltirish, oila-mahalla-maktab hamkorligi, mas’uliyat, Boshlang‘ich ta’lim.

Kirish

Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsadi – yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kelgusi ta’lim yo‘nalishini (akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji) tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat. Bola shaxsining shakllanishida butun ijtimoiy voqealik hususan uning o‘zi tug‘ilib o‘sgan oila muhiti hal qiluvchi vazifani bajaradi. Oiladagi turmush madaniyati, mehnat характери otaonaning ahloqiy saviyasi, ijtimoiy masalaga, bolaning komil inson bo‘lib yetishishiga ta’sir ko‘rsatadi. Mehnat tarbiyasi – hozirgi kun tarbiyasining zarur sharti, shaxsdagi profesional barkamollikning asosidir.

Asosiy qism

Mamlakatimizda umumdavlat ishi bo‘lgan ana shu tarbiya, ya’ni o‘quvchi yoshlarni ijtimoiy ishlab chiqarishning turli sohalardagi mehnat faoliyatiga tayyorlash asosan maktabning o‘rta va yuqori sinflarida amalga oshiriladi. Lekin bu ishning muvaffaqiyatli bajarishda Boshlang‘ich sinflarda va oilada turli darajada tayyorlanishga bog‘liq..

*Yuqoridagi mavzu yuzasidan Samarqand viloyatida xam bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan Samarqand viloyati
Paxtachi tumani 11-sonli maktab psixologi
Ruziqulova Umida Ruziboyevna ustozning*

ilmiy ishlari xam misol bo'la oladi.



Bolalarga mamlakatimizda har qanday mehnat sharafligi ekanligi, halol mehnat qilgan kishi yuksak, qadirlanishni, mehnatdan qochadigan ahloqsiz odamlarni hech kim hurmat qilmasligini, boshqalar hisobiga yashash umuman aqlli, zukko odamga to'g'ri kelmasligini maktabda, ota-onalarning suhbatlaridan va ularning kuzatishidan iloji boricha ertaroq bilib olishlari lozim. Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin. Yosh avlodga mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash muhimdir. Ijodkorlik inson faoliyatiga umuman xos narsadir, qobiliyatlarini har tomonlama kamol toptirish uchun imkoniyat mavjud bo'ladi, chunki bolalar yoshligidanoq mehnatga qiziqib qoladilar: ular o'z o'yinlarida ota-onalariga, atrof-tevarakdagi kishilarga taqlid qiladilar, ularning mehnat harakatlarini takrorlaydilar. Faoliyatga ana shunda intilish, kattalarning mehnatiga taqlid qilish bolalarga maktabgacha yoshdayoq hammabop mehnat malakalarini singdirish uchun qulay omil bo'lib xizmat qiladi. Tabiiyki, bularning hammasini tushunarli va obrazli shaklda bolalar ongiga yetkazish, bolalarni o'rab turgan va ularga xizmat qilayotgan hamma narsalar odamlarning mehnati bilan vujudga keltirilgan, qo'llar faqat mehnatdagina - mohir qo'llariga aylanadi, mehnatsiz hech narsani o'rganib bo'lmaydi, degan fikrni singdirishga intilish zarur.

Har qanday kasbda eng muhimi - uning mehnat mazmuniga ega bo'lishidir. Shu boisdan mehnatsevarlikni, yaxshi urf-odatlarini tarbiyalash va ularni mehnat jo'shqinligiga ko'chirish bolalarni kasb tanlashga tayyorlashning bosh negizidir. Oilada bolani mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash odatda maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlanadi. Ana shu paytdan e'tiboran bolalarni bo'lg'usi kasbni tanlashga tayyorlash amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini muntazam ravishda o'rganish zarur. Kasb tanlashda xato qilmaslik uchun bolalarga avvalo maktab va oila yordam berishi kerak. Har bir oilada ota-ona sevimli farzandlari tarbiyasi bilan mashg'ul ekan, ulardan albatta ertaga sog'lom, komil inson, yaxshi kasb kor egalari chiqishini xohlaydi. Chunki bolaning bilimli, ilimli va

yaxshi kasb egasi bo'lishidan avvalo oila manfaatdor, qolaversa solih farzand tarbiyalab borish ota-onaning burchidir. Shunday ekan bola ulg'ayib borishi bilan uni biror kasb-hunarga yo'naltirib borishda bosh-qosh bo'lish, maslahatlar berib borish, mazkur yo'nalish bo'yicha shart- sharoit va imkoniyatlar yaratib berish ota-ona tarbiyasining muhim bir qismi hisoblanadi. Bola kasb tanlayotgan vaqtda oila va maktab hamkorligi katta ahamiyat kasb etadi. Bola oilada olgan tarbiyasi va maktabda olgan ta'limi uning kasbni to'g'ri tanlashiga yordam beradi. Maktabdagi o'quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblangan kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga ham innovatsion tus berish, uning samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan zamonaviy pedagogik-psixologik, axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy-uslubiy ta'minot va kadrlar salohiyatini yaxshilash, jarayonga jamoatchilik hamda ota-onalarni faol jalb etish zarurati mavjud. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har bir inson bo'lg'usi kasbini mustaqil o'zi tanlasagina sevib tanlagan kasbiga mehr qo'yadi. Uning zahmati qanchalar og'ir bo'lsada, charchamaydi, nolimaydi. O'zi va boshqa hunarmadlar yaratgan mahsulotlarning qadriga yetadi. Halol mehnat evaziga topgan mablag'larini o'ylab, tejamkorlik bilan sarflaydi. Hayotda shunday ota-onalar ham uchraydiki, ular farzandining xohish-irodasi, qobiliyatlarini hisobga olmasdan, o'zlariga qulay bo'lgan kasb - hunarni egallashga majbur qiladilar. Natijada, ota-onaning qistovi bilan o'qishga kirgan farzand, o'quv dargohini bitirib chiqqandan so'ng, mutaxassislikka emas, shunchaki diplomga ega bo'ladi. Tabiiyki, bunday mutaxassislikdan na o'zi, na jamiyat naf ko'radi. Oilada ota-onalarning o'z kasbiga bo'lgan sadoqati, bir-biriga do'stona munosabati, mehribonligi, g'amho'rliqi, o'z navbatida oilada farzandlarning kasbga, hayotga bo'lgan munosabatining to'g'ri shakllanishiga yordam beradi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni qaysi kasb hunarga layoqatliligini aniqlashda oila shifokorining maslahati ham muhim ro'l o'ynaydi. Bolalar va o'smirlar shifokori sog'lom o'quvchilarga kasb-hunar tanlash yuzasidan tavsiya berar ekan, albatta, tanlangan kasbning o'smir o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, balki, uni barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga imkon berishini hisobga olishlari shart. Farzandini to'g'ri kasb hunarga yo'naltirish borasidagi ota-onaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: -yoshligidan farzandining ta'lim tarbiya olishiga befarq qaramasdan, uning qiziqish, mayli va qobiliyatini kuzatib borishi; -har bir ota-ona farzandi o'qiyotgan sinf rahbari, maktab amaliyotchi psixologi, yoshlar yetakchisi, shifokori bilan yaqin aloqada bo'lib farzandini qaysi fanlarga qiziqishi, qaysi fan va sport to'garaklariga qatnashayotganligini bilib borishi;

-ota-ona o'z kasblari haqida farzandiga to'liq ma'lumotlar berib borishi, unda qiziqish uyg'otishi va boshqa kasblar haqida ma'lumotlar berib borishi; -faqat farzandining qiziqishiga qarab kasb tanlash va unda o'rganishiga imkoniyat yaratishi. Shunday qilib, xalqimizda "Bir bolaga- yetti qo'shni ota-ona" degan maqol bejizga

aytilmagan. Oilada bir farzand dunyoga kelar ekan, uning ta'lim-tarbiyasi, shaxsiy kamoloti haqida faqatgina ota-ona emas barcha yaqinlar, mahalla-maktab birgalikda harakat qilar ekan, bu farzand kelajakda yetuk inson bo'lib voyaga yetadi. Har tomonlama yetuk va barkamol avlodlar esa mamlakatimizning kelajagi hisoblanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Axborot asrida ta'lim- tarbiya. Tuzuvchilar: B.X.Daniyarov,A.E. Rahimov, F.X.Jabborov – Toshkent: Akadem nashr.2012.
2. Qoriyev A Globallashuv jarayonlarida yoshlar ongiga salbiy ta'sir etayotgan internet ijtimoiy tarmoqlari // Umumiy o'rta ta'lim fanlarini o'qitishda axborot ta'lim resurslaridan foydalanishning dolzarb muammolari va yechimlari . Respublika ilmiy –amaliy konferensiyasi materiallari to'plami – T: 2014.- B. 111.
3. Qurbonov M. Bolam baxtli bo'lsin desangiz... – T: Ma'naviyat. 2014.
4. A.A. Rashidov - A MODEL FOR DEVELOPING FUTURE TEACHERS' COMPETENCEIN DESIGNING LEARNING-COGNITIVE ACTIVITY, SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL, 2025. 146-152s
5. Nabiyeva Aziza. Imom G'azzoliyning farzand tarbiyasiga oid qarashlarini o'rganishning mavjud holati mazmuni. PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025\12. cr 192-196.
6. **A RASHIDOV - O'QUV MASHG'ULOTLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYA VA METODLAR ASOSIDA LOYIHALASHTIRISH, O'zMU xabarlari 130 (2181-7324), 135-137bb.**
7. Rashidov Abduaziz Abduvali ugl i- COMPETENCE IN DESIGNING EDUCATIONAL ACTIVITIES FOR FUTURE TEACHERS DEVELOPMENT MODEL., LondonInternationalMonthly Conferenceon Multidisciplinary ResearchandInnovation WORLD SCIENCE PUBLISHINGLTD,LONDON , 2025/10/8, 147-150 bb.
8. A Rashidov . BOLAJAK OQITUVCHILARNI DARS MASHGULOTLARINI TASHKILLASHTIRISHDA LOYIHA METODINING AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 2023